

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2-2025
FILOLOGIYA**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.G.Sabirdinov	
O'zbek tarixiy romani: Oybek va Qodiriy	6
G.M.Oripova	
Ayol ijodkorlar she'riyatida daraxt obrazi tasviri.....	9
M.A.Jo'rayeva	
Munavvar Qori Abdurashidxonov ijodida safar janri	13
G.Muhammadjonova	
Hayot haqiqati, tarixiy haqiqat va badiiy idrok.....	17
I.A.Эшонқулов	
Тавсифи мушаххаси тазкираҳои Ҳашмати Бухорой.....	21
B.X.Murtazoyev, F.O.Hafizova	
"Bobotog"essesida peyzaj: flora tasvirida badiiylik.....	28
I.A.Эшонқулов,З.П.Аҳмедҷонова	
Ситоиши хирад ва хирадгустарӣ дар "Шоҳнома"-и Ҳаким Фирдавсӣ	34
D.T.Musayeva	
Elizabet Gaskel ijodiga nazar	39
H.H.Қаюмов	
Муаммои шинохти санъати ташхис дар поэтикаи мумтози форсу тоҷик.....	42
Sh.T.Ibragimov	
"Babur the tiger" romani o'zbekcha tarjimasida metafora ifodasi	47
J.T.Ibragimov	
"Qutadg'u bilig" istioralarining poetik o'ziga xosliklari xususida chuqur mulohaza.....	55
A.A.Akbarov	
Vatanga muhabbatning lirik ifodasi	61

TILSHUNOSLIK

Sh.M.Iskandarova	
Farg'ona davlat universiteti tilshunosligi: kecha va bugun	66
Г.М.Хошимов, М.Г.Хошимов, Н.А.Абдуллаева, Д.Ш.Назарова, Д.А.Ахмедова	
Актуальные проблемы терминологического аппарата и метаязыка исследования пословиц и поговорок.....	71
Z.V.Alimova	
Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida sifat turkumiga oid forsiy leksemalar xususida	81
A.B.Uralov	
Ayrim kengaygan shakllar taraqqiyoti hamda ularda nomutanosibliklar	86
Z.A.Davlataliyeva	
Ingliz tili darslarida talabalarining o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning mazmuni, shakli va vositalari.....	90
H.A.Абдуллаева	
Сопоставительное изучение провербем, вербализующих концептуальную оппозицию «ум/глупость» в английском и русском языках	95
H.A.Отахонова	
Проблемы общей теории и классификации лингвокультурам	100
B.B.G'aprov	
Ingliz gazeta sarlavhalarining o'ziga xos xususiyatlari hamda ularda fe'l komponentli kollokatsiyalarning qo'llanilishi.....	106
D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova	
Siddiq Mo'minning "Buyuk Temur avlodi" nomli she'rida pretsedent nom tahlili.....	112
N.Fidan	
Ellipsis in English text linguistics	115
M.O.Qulmamatova	
Ingliz va o'zbek tillaridagi "boylik/wealth va kambag'allik/poverty" konseptlarining o'xshashlik va farqli jihatlari.....	120
N.X.Boboqulova	
Ingliz va o'zbek tillarida head/bosh somatik komponentli maqollarning konseptual tahlili	124



UO'K: 811.512.133'366

AYRIM KENGAYGAN SHAKLLAR TARAQQIYOTI HAMDA ULARDA
NOMUTANOSIBLIKLAR

РАЗВИТИЕ НЕКОТОРЫХ РАСШИРЕННЫХ ФОРМ И ИХ ДИСПРОПОРЦИИ

DEVELOPMENT OF CERTAIN EXPANDED FORMS AND INCONSISTENCIES IN THEM

Uralov Azamat Begnarovich 

Sirdaryo viloyat pedagogik mahorat markazi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Annotatsiya

Maqolada morfem sath birliklari orasidagi murakkab shakllarning kengaygan qismlari, tarixiy taraqqiyot natijalarida ro'y bergan o'zgarishlar tadqiq etilgan. Murakkab shakllar orasida kengayish holati ko'p uchramasa-da tilda mavjud bo'lgan holat hisoblanadi. Tadqiqotda kengaygan shakllarning ayrimlari tahlilga tortilgan va ularda yuz berayotgan nomutanosibliklar ilmiy asoslab berilgan.

Аннотация

В статье рассматриваются расширенные части сложных форм между единицами морфемного уровня и изменения, произошедшие в результате исторического развития. Хотя падеж расширения не является распространённым среди сложных форм, он существует в языке. В ходе исследования были проанализированы некоторые развернутые формы и научно обоснованы имеющиеся в них дисбалансы.

Abstract

The article explores the expanded elements of complex morphological forms and the changes they have undergone as a result of historical development. Although the expansion of such forms is not widespread, it is a linguistic phenomenon that exists. The study analyzes several of these expanded forms and scientifically substantiates the inconsistencies observed in them.

Kalit so'zlar: nomutanosiblik, murakkab shakllar, kengaygan shakllar, qo'shma affikslar, ma'no kengayishi, affiks, arxaiklashuv

Ключевые слова: несоразмерность, сложные формы, развернутые формы, составные аффиксы, расширение значения, аффикс, архаизм

Key words: disproportion, complex forms, expanded forms, compound affixes, expansion of meaning, affix, archaism.

KIRISH

Murakkab shakllar orasida kengaygan shakllar o'ziga xos o'rin egallaydi. Kengaygan shakllar tashqi tomondan sintetik shakllar (qo'shma affiks)larga o'xshab ketadi. Kengaygan shakllar bilan qo'shma affikslar orasida muhim tafovutlar bor. Masalan, qo'shma affiksning ma'nosi tarkibidagi qismlar (-im+iz, -ni+ki, -im+tir, -ga+cha, -ta+cha) ma'nosining yig'indisidan iborat bo'lishi shuningdek, yangi bir ma'no hosil qilishi (-imiz, -niki, -imtir, -gacha, -tacha) lozim. Kengaygan shakllarda esa bir qismning alohidaligi bilinib turadi: bunda murakkab shaklning qismlari zichlashib, semantik yaxlitlashib, ajralmas holga kelib qolgan bo'lsa, kengaygan shakllarda qismlar hali zichlashmagan, yaxlitlashish kuchsiz, qismlar orasidagi aloqa mustahkamlanmagan, kuchaytiruvchi, qo'shimcha ma'no beruvchi qism bilan kengaygan bo'ladi: *-ayin, -ingizlar, -ibon* kabi. Bu xil shakllarning yuzaga kelishi so'zning oxiri boshlanish qismiga nisbatan qisqarishga moyil ekanligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Har bir so'zning mazmun-vazifa jihatidan biror pozitsiyadagi mavqeyini mustahkamlash uchun A. G'ulomov ta'biri bilan aytganda, kuchaytiruvchi affikslar yordamga keladi. Turkiy tillar, jumladan, o'zbek tili morfologik qurilishida tashqi tomondan qo'shma affikslarga o'xshab ketadigan bir qancha birliklar mavjud. Turkiy tillar o'zak va qo'shimchalar tizimidagi ana shunday birliklarni taniqli turkiyshunos olim P.M.Melioranskiy "kengaygan" deb nomlagan edi. Uning fikricha, "so'r-so'ra, qiz-qizi, bit-biti, bur-bura" shakllaridagi ikkinchi qism – "qisqa" o'zaklarning "kengaygan"

TILSHUNOSLIK

shaklidir"[1. 59-64. Ular til tizimidagi jarayonlarning hosilasi hisoblanib, nutqda turli sema nomutanosibliklarini yuzaga chiqaradi. E.V.Sevortyan "kengaygan o'zakdagi unlini tor unli sifatida ta'riflab, uni "takror" intensivlik ma'nosini bildiruvchi qo'shimcha maqomi bilan affiksatsiya tizimiga mansub"[2. 436] deb aytgan edi.

Turli davrlarda til tizimidagi ma'no o'zgarishlari o'zakning murakkablashuviga olib keladi. Semantik "xiralashgan", ishlatilish doirasi cheklangan affikslar asos tarkibiga yaxlitlanadi, avvalgi ma'noni qisman tiklash, kuchaytirish uchun yangi faol birlik (affiks) orttiriladi. Fuziya qonuniyati tufayli hozirgi o'zbek tilida ham qisqa shakllarning "kengaygan" shakllari mavjudki, ularning bir qismi shakl jihatidan qo'shma affikslarga o'xshab ketadi. Biroq ularning orasida muhim tafovutlar borligi ushbu hodisalarni turli maqom va mavqega ega bo'lgan birliklar sifatida o'rganish zaruratini vujudga keltirmoqda.

Ba'zi manbalarda so'z tarkibidagi biror struktur element ma'no tashuvchi vazifada kelmay, faqat uslubiy vazifa bajarsa, u asemantema hisoblanishi kerak, tarzidagi qaydlar uchraydi. Bu tezis shakllardagi uslubiy qirralar, emotsional-ekspressiv nozikliklardan farqli holda, so'zning ma'no tuzilishidan tashqarida turadi, degan fikrga asoslanadi. Ammo o'zbek tiliga xos kengaygan shakllarning fakultativ elementini asemantema, interfiks kabi baholashga asos yo'qdek. Chunki bular, birinchidan, ma'lum shaklning tarkibiy qismi hisoblanadi, ikkinchidan, so'zning ma'no tuzilishi bilan bog'langan ekspressiv ma'nolar (kuchaytirish, mustahkamlash) bildirib keladi; ayrimlari ushbu vazifa bilan birga (masalan, "*-ganlik*"dagi *-lik*) tegishli grammatik vosita rolini ham bajaradi. Bu maqolada ana shunday tashqi tomondan qo'shma affiksga o'xshab ketadigan, lekin ikkinchi qismida ma'no susayishi kuzatilgan, birinchi qism ma'nosiga qo'shimcha ma'no berib turadigan morfologik kengaygan shakllar va ularning taraqqiyotidagi nomutanosibliklar haqida fikr bildiramiz.

Natija va muhokama.

-inglar shakli. Tarixiy taraqqiyot bosqichlarida turli asos morfemalar va affikslar ma'lum darajada rivojlanadi, o'zgaradi. Bu taraqqiyot til birliklarining o'zgarishi (ma'nosi, vazifasi va shaklining kengayishi, torayishi)ga sabab bo'ladi. Morfologik shakllarning bunday shakl va mazmun munosabati uzoq tarixiy jarayonlarning mahsuli hisoblanib, tilda shaklga nisbatan nomutanosibliklarni ko'rsatadi.

A.Kononov ma'no va vazifasi o'xshash qo'shimchalarning yangi butunlik – qo'shma affiks tarkibiga yaxlitlanishi yoki ma'no-vazifasi susaygan affiksga xuddi shu ma'no-vazifadagi mahsuldor affiksning orttirilishi turkiy tillar, oltoy tillari, umuman, dunyo tillarida keng tarqalgan hodisalardan biri ekanligini ta'kidlagan edi[3. 8]. Haqiqatan, bunday kengayish turkiy tillarda, shu jumladan, o'zbek tilida qadimdan keng tarqalgan hodisadir. Buni buyruq-istak maylining II shaxs ko'plik va birlik shakllarining paydo bo'lish tarixi va o'zaro munosabatida ko'rish mumkin. Turkiy tillar qatorida o'zbek tili tarixida ham ushbu mayl II shaxs ko'pligi uchun *-nglar*, *-ngiz*, *-ngizlar* qo'shimchalari keng ishlatilgan.

Fe'llarda buyruq-istak mayli hisoblangan *-inglar* shakli II shaxs ko'plikni ifodalaydi: *bolalar*, *vazifani bajaringlar*. Sintagmada berilgan *-inglar* shakli ma'no va mazmun holatiga ko'ra mutanosib ifodalanadi. Ya'ni mazmun nuqtayi nazardan II shaxs tomonidan berilayotgan buyruq-istakni shu shakl yuzaga keltirmoqda. Masalaga boshqa tomondan qaralganda esa, ayni shu mazmunni buyruq-istak maylining II shaxs ko'plik *-ing* shakli ham ifodalaydi: *bolalar*, *vazifani bajaring*. Bu holatdagi *-ing* shakli ham ma'no va shaklda mutanosibdir. Agar ikki shakl (*-inglar*, *-ing*) ham bir mazmunga xizmat qilsa, bunda ikki shakl birligiga bir mazmun birligi to'g'ri kelib, shakl nomutanosibligini hosil qiladi. Chunki aynan bir mazmunni ifodalayotgan ikki shakl bir-biridan qaysi jihati bilandir farq qiladi. Ikki shaklni ajratib turadigan yagona jihat bu *-lar* shaklidir.

Yuqorida qayd etganimizdek, ayrim shakllar o'zlarining vazifasini kuchli egallash maqsadida, o'zlari bilan mazmunan mos keladigan bir shaklni olib kengayadi. *-ing* mayl shakli ham hurmat mazmuniga tortilib, ko'plik mazmuni susayib borayotganligi uchun II shaxs ko'plikni mustahkamlash va tiklash maqsadida yana bir ko'plik shakli bilan kengayadi. Natijada biz bilgan *-lar* ko'plik shakli *-ing* mayl shakli bilan birikib, o'z mavqeyini qisman yo'qotadi va maylni kuchaytiruvchi, ta'kidlovchi unsuriga aylanadi. Bu erda *-lar* shakli faqatgina kuchaytiruvchi, ta'kidlovchi ma'nosida emas, ko'plik shakli sifatida ham e'tirof etilsa, *-ing* ko'plik mayl shaklida pleonazm yuz bergan deyishga asos bo'ladi.

Agar *-ing* mayli ko'plik sonda emas, hurmat mazmunida yakka shaxsga qaratilgan bo'lsa, bunda *“-lar”*ning keragi bo'lmay qoladi. *Otaxon, o'tiring(lar?)*. Demak, fe'llarning buyruq-istak mayli hisoblangan *-ing* shakli II shaxsda *-lar* ko'plik shaklini olib kengayadi: *-inglar – do'stlar, keling; do'stlar, kelinglar* kabi. Bu kengayish asl shaklga nisbatan shakliy nomutanosibdir: *boring – boringlar*.

-(i)ngiz, -(i)ngizlar shakllari. Buyruq-istak maylining II shaxs ko'pligini hosil qiluvchi shakllar *-ngiz, -ngizlar* uchun bazaviy asos mavqeyini *-ng* bajaradi. Bu affiks qadimgi turkiy til materiallarida jamlik-ko'plik affiksi sifatida amal qiladi (A.N.Kononov asarlariga qarang). Keyinchalik bu qo'shimchada ko'plik ma'nosining xiralashishi va hurmat shakliga aylana borishi bilan ko'plik ma'nosini tiklash ehtiyoji ko'plikning boshqa ko'rsatkichlari: *-z* va *-lar* orttirilishiga olib kelgan. O'z navbatida, *-z* affiksining arxaiklashgani sababli *-ngiz* shakli hurmat ko'rsatkichiga aylangan. Bu esa shakliy nomutanosiblikni yuzaga keltiradi.

Demak, buyruq-istak mayli paradigmasida turkiy adabiy tillarning shakllanishi va farqlana borishi bilan har xil areal, dialektal tarqalishga ega bo'lgan *-ng, -z, -lar* o'zaro qo'shilishdan ikki yo'nalishda – grammatik va modal yo'nalishda yangi shakllar hosil bo'lgan: *-ng, -ngiz* shakllarida modal ma'nolar ustun kelib, shaxsga hurmat ma'nosi uchun ishlatila boshlaydi. Dastlabki davrlarda *-ngiz, -nglar, -ngizlar* ma'no tarkibiga ko'ra *-ng* affiksining kengaygan shakli sifatida ko'ringan bo'lsa, keyinchalik ular yaxlitlanib, qo'shma affikslarga aylangan. Ulardan *-ngizlar* shakli eski o'zbek tilida kam uchraydi, shunda ham she'riy vazn talabi bilan matnga kiritiladi,[4. 156] hozirgi o'zbek adabiy tilida esa deyarli qo'llanmaydi, lekin o'zbek tilining qipchoq lahjasida (*kelingizlar, olingizlar*) bu shakl tegishli maylning asosiy ko'rsatkichlaridan sanaladi (qozoq va qirg'iz tillarida ham ana shunday mavqega ega). Buyruq-istak maylining *-ingiz* (suyanmangiz), *-ingizlar* (*boringizlar*) ko'rinishidagi sintagmalarda *-iz, -izlar* qismlari *-(i)ng* shaklining ma'no hamda vazifasini kuchaytirish, mustahkamlash maqsadida orttirilgan fakultativ birliklardir. Ushbu shakllar sintagmada nisbiy mustaqilligini saqlaydigan, o'zidan oldingi shakl tarkibiga singib ketmaydigan morfemalar hisoblanadi. Shu jihatiga ko'ra nomutanosib bo'lib qolgan shakllar bir mazmunga xizmat qiladi.

-sizlar shakli. Bu shakl til taraqqiyotining keyingi davrlarida yuzaga kelgan bo'lib,[5. 14] II shaxs-son shaklini hosil qiladi: *borasizlar, o'qiysizlar, yozasizlar* kabi. Uning birinchi qismi bo'lgan *-siz* qo'shimchasi tarixan *-si* olmosh va *-z* jamlik-ko'plik ko'rsatkichidan tashkil topgan bo'lsa ham, keyingi davrlarda yaxlit *siz* olmoshining agglyutinatsiya usuli bilan shaxs-son kategoriyasi paradigmasiga to'laqonli birlik sifatida tortilganini aytish mumkin. *-siz* affiksi semantikasida ko'plik ma'nosining susayishi va hurmatlash ma'nosining barqarorlashuvi tufayli tegishli paradigmaga ko'plik ma'nosini tiklash uchun *-lar* affiksi orttirila boshlagan va kengaygan shakl *siz + lardan* yangi affiks *-sizlar* shakli paydo bo'lgan.

A. Hojiyev bu haqda shunday yozadi: “Kontekstdan tashqari holatda *-siz* affiksli formaning ko'plik yoki birlik ma'nosida qo'llangani aniq bo'lmay qoladi. Shuning uchun ham ko'plikni aniq ifodalashda bu formaning o'zi ham *-lar* affiksini oladi: *borgansizlar* kabi. Bu formada hamma vaqt hurmat, aniqrog'i, “sizlash” ham bo'ladi: Ro'zg'or, tirikchiliklarning qalay, qiynalmayapsizlarmi?” [6]

Shaxs-son kategoriyasi doirasida paradigmani nomutanosiblik holatidan chiqarish, paradigmani o'xshashlik (analogiya) qonuniyatiga binoan mutanosib holatga keltirish maqsadida shakllarning ma'no-vazifa jihatidan qayta guruhlanishi, uyg'un holatga keltirilish yuz beradi. Bunda, albatta, *-lar* qismining muhim hissasi bor. Ushbu holatni quyidagicha ko'rsatish mumkin:

siz borasiz – sizlar borasizlar. Bunda ko'plik semasini ifodalash uchun xizmat qilayotgan *siz borasiz* shakli *sizlar borasizlar* shakliga nisbatan hurmat semasiga tortilib qoladi, bu esa yana bir nomutanosiblikni keltirib chiqaradi.

Og'zaki so'zlashuvda *-sizlar* shakli qulaylikni ta'minlash maqsadida *-z* qo'shimchasining ma'nosi susayishi oqibatida *-silar* shaklida aytiladi: *silar (sizlar) borasilar (borasizlar)* va bu shakl (*-silar*) so'zlashuv morfologiyasi ko'rsatkichlaridan biriga aylangan.

-sinlar shakli. Bu morfemalar III shaxs buyruq-istak mayli ko'plik shakllarini hosil qiluvchi kengaygan shakldir: *kelsinlar, aytsinlar* kabi. Bu borada ham turkiyshunos olimlarning tadqiqotlariga yuzlanamiz.

-sin qo'shimchasi qadimgi yodgorliklar matnlarida III shaxsning ham birlik, ham ko'plik o'rinlarida kela olgan, ya'ni son jihatidan betaraflik, neytrallik xususiyatiga ega bo'lgan. Ana shu

TILSHUNOSLIK

sababga ko'ra, III shaxsda *-lar* ko'plik qo'shimchasining ishlatilishi muntazam bo'lmagan shakllanish tarzini namoyon qilgan: kelursunlar "olib kelsinlar" (kelur-olib kelmoq)[7. 663].

-lar qo'shimchasining bu xil mavqeyi eski o'zbek tilida ham davom etganligini kuzatish mumkin. Tadqiqotlarda aytilishicha, bu davrda *-sunlar* murakkab shakli yaxlit birlik bo'lsa-da, "ko'pincha ko'plik ma'nosi *-sun* ~ *-so'n* qo'shimchasi tomonidan qo'shimcha shakllanishsiz ham ifodalanaveradi" [4. 158]. Ayni xususiyat hozirgi o'zbek adabiy tilida ham saqlangan bo'lib, III shaxs birlik va ko'plik zidligi ma'lum ma'noda uyg'unlik kasb etganligi til dalillarida ko'rinadi: *-sinlar* qo'shimchasi turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida bir qadar keyingi davrda shakllangan qo'shimchalar sirasiga kiradi: *kelsinlar*, *o'tirsinlar* (kesatish mazmuni ham bor).

Ma'lumki, turkiy tillar va o'zbek tilining grammatik vositalari orqali turli uslubiy-modal, pragmatik-konnotativ ma'nolar ham ifodalangan, ana shu ehtiyoj bois o'ziga xos birliklar paydo bo'lgan. Turkiy toshbitiklar matnlarida, "eski o'zbek tilida *-sin* qo'shimchasi III shaxs birlik hurmat ma'nosini ifodalashga ham xoslangan" [7. 653]. Ma'nodagi ana shunday siljish, tarmoqlanish yangi davrda o'zbek adabiy tilida II shaxs, ko'plik hurmat shakli sifatida *-sinlar* affiksining ixtisoslashuviga imkon yaratgan. Natijada "*-sin*"ning *-sinlar* shaklida kengayishi sodir bo'lgan.

XULOSA

Demak, *-sin* shakli ham ma'noni kuchaytirish talabi bilan *-sinlar* kengaygan shakliga o'tgan va avvalgi shakliga nisbatan shakliy nomutanosib bo'lib, mazmun esa saqlanib qolgan: *bolalar mehmonga borishsin* – *bolalar mehmonga borishsinlar*. Shaklning kengayishi yoki vaqt o'tishi bilan ikki birlikning qo'shilib ketishi tilda yuz beradigan hodisalardan biri hisoblanadi. Ayrim kengaygan shakllar tarkibi dastlab qo'shma affiks maqomida bo'lish holati ham kuzatiladi. Biz bunday holatlarda tarkibning dastlabki ko'rinishini emas, balki sinxron jihatini inobatga olamiz. Murakkab shaklning qismlari zichlashib, semantik yaxlitlashib, ajralmas holga kelib qolgan bo'lsa, kengaygan shakllarda qismlar hali zichlashmagan, qo'shimcha ma'no beruvchi qism bilan kengaygan bo'ladi: *-inglar*, *-(i)ngiz*, *-(i)ngizlar*, *-sizlar*, *-sinlar*, *-(a)yin*, *-(i)bon*, *-moqlik*, *-(i)shlik*, *-ganlik*, *-ovlon*, *-xonim*, *-kala* kabi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мелиоранский П.М. Арабский филолог и специалист по турецкому языку. – К.П.Б., 1900.
2. Зевортян Э.В. Аффиксы образования глаголов в азербайджанском языке. –М., 1962.
3. Кононов А.Н. О природе тюркской агглютинатсии // Вопросы языкознания. 1976. – № 4.
4. Щербак А.М. Грамматика староузбекского языка. –М. – Л.; 1963.
5. Дмитриев Н.К. История аффиксов слова «закливание» / Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков. Том II. Морфология. –М., 1956.
6. Ўзбек тили грамматикаси. I жилд. –Тошкент, 1975.
7. Древнетюркский словарь. – Л., 1969.